

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12. 2019.Ped.34.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DONIYOROVA SHAHNOZA ERKIN QIZI

**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING
ART-DIZAYNGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH
(texnologik ta’lim misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Doniyorova Shahnoza Erkin qizi

Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish (texnologik ta’lim misolida) 3

Дониёрова Шахноза Эркиновна

Развитие знаний будущих учителей об арт-дизайне на основе креативного подхода (на примере технологического образования) 23

Doniyorova Shakhnoza Erkin’s daughter

Developing the knowledge of future teachers in artistic design, based on a creative approach (in the case of technological education) 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DONIYOROVA SHAHNOZA ERKIN QIZI

**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING
ART-DIZAYNGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH
(texnologik ta’lim misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Ped2800 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://www.cspi.uz/ixtisoslashgankengashlar>) va "Ziyonet" ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarova Rohat Gaybullayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Berdimuratova Alima Karlibaevna
falsafa fanlari doktori, professor

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "29" ^{IV} soat 14⁰⁰ da majlisida bo'ladi (manzil: 230105, Nukus shahri, P. Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks (99861) 229-40-75, e-mail: nkspi_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ¹⁵⁰-raqam bilan ro'yxatga olingan (manzil: 230105, Nukus shahri, P. Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "14" ^{IV} da tarqatildi.
(2025-yil "14" ^{IV} da) ¹⁵⁰ raqamli reestr bayonnomasi)



B.P. Otemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.- m.f.d., professor

Z.K. Kurbaniyazova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

A.Q. Berdimuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda AQSh, Angliya, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning dizaynga oid bilimlari va kreativ ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu davlatlarda art-dizaynga oid mashg'ulotlarni kreativ, integrativ, aksiologik, madaniyatshunoslik yondashuviga tayangan holda tashkil etish asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sohasida katta tajribalar to'plangan. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilik layoqatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Massachusetts Institute of Technology (AQSh), Eastern European Scientific Journal (Germaniya), Xitoy pedagogik tadqiqotlar milliy instituti (NIES, Guanjou, Xitoy) Chunang universiteti (Janubiy Koreya), Miyagi universiteti (Yaponiya), Sankt-Peterburg, Krasnoyarsk davlat universitetlari (Rossiya), Astana davlat universitetida (Qozog'iston) amalga oshirilmoqda. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning amaliy tajribalarni o'zlashtirishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning kreativ mexanizmlari bugungi kunda keng ko'lamli tadqiqotlarning obyektiga aylanmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo'lajak mutaxasislarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik vaziyatlarni tashkil etish, nazariy-metodologik jihatdan ta'minlash borasida tizimli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Kreativ jarayonlarni loyihalash, tashkil etish strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etishga bag'ishlangan izlanishlar ko'lami kengaymoqda. Bunda ta'lim oluvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ijod psixologiyasiga tayangan holda art-pedagogika oid yondashuvlarning mazmuni boyitilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv talablaridan kelib chiqqan holda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ ko'nikmalarini faollashtirish vaziyatlarini tashkil etishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish, talabalarning ijodiy ishlarini baholash mexanizmlarini yaratishga ustuvorlik berilmoqda.

Respublikamiz pedagogika fanida ham talabalarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish, art-pedagogikaning fundamental asoslarini yaratish, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan metodologik asoslarni ishlab chiqish yo'nalishida izlanishlar amalga oshirilmoqda. "Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash¹ ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu sohada xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, milliy qadriyatlarga e'tibor qaratish, milliy ornamentlar bilan ishlash texnologiyalarini takomillashtirish asosida art-pedagogikaning ilmiy-metodologik asoslarini yaratish yo'nalishidagi tadqiqotlar ko'lami kengaytirilmoqda.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси олий таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сон Фармони. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda ijod psixologiyasi, kreativ faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislarni tayyorlashga oid yondashuvlar psixologlar M.Davletshin, E.G‘oziyev, Sh.Baratov, Z.Nishonova, R.Sunnatovalar, pedagoglar R.Djurayev, R.Safarova, N.Muslimov, G.Ibragimova, O‘.Tolipov, Sh.Sharipov, B.Qodirov, O.Qoysinov, F.Ehsonova, E.Usmonova, M.Jumayev, B.Jo‘rayeva, M.Usmonboyevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan T.Bar’sheva, T.Bashina, P.Gorev, A.Dobrovich, Y.Jigalov, M.Zinkovkina, Ye.Ilin, V.Kan-Kalik, S.Kon, A.Leontev, V.Merlin, R.Nemov, F.Sirotyuk, V.Utyomov, N.Shurkov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijodkor, kreativ shaxsni tarbiyalash masalalarining psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatlari o‘rganilgan.

Xorijlik olimlar Edward de Bono, V.Safonova, R.Simpson, P.Sysoyev, S.Mednich, E.Torrance, M.Wollach, N.Koganning ilmiy tadqiqotlarida kreativ yondashuvning art-pedagogikadagi imkoniyatlari va xususiyatlari ochib berilgan.

Biroq kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik, psixologik jihatlari va omillarini aniqlashtirish, art-dizaynga doir o‘quv materiallarini strukturalash mexanizmi, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va shart-sharoitlari maxsus tadqiq etilmagan. Ana shu sababli “Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borish lozim, degan xulosaga kelindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish” ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik, psixologik jihatlari va omillarini aniqlash;

kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish mazmunini yoritib berish;

kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish jarayonining modelini takomillashtirish;

kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Qo'qon davlat pedagogika institutining 440 nafar talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak o'qituvchilarning art dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish mazmuni, prinsiplari, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, o'quv-meyoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa, umumlashtirish, savol-javob, suxbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistika metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv omillari kontsept tavsifiga ega ijtimoiy-psixologik va sohaviy jarayonlarning o'zaro madaniy sintezlashuvining validiligini qat'iy hisobga olish orqali aniqlashtirilgan;

bo'lajak dizayner-o'qituvchilarda kreativ yondashuv asosida art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish mazmuni o'quv materiallarini loyihalashning besh bosqichli parametrlarini artpedagogikaning kontseptual g'oyalari bilan identifikasiyasiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

kreativ yondashuv asosida bo'lajak dizayner pedagoglarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish modelining tashkiliy-jarayonli komponenti IVEN, g'oyalar maydonini yaratish, reflektiv, shaxsga yo'naltirilgan, vizual kreativlik, milliy dizaynga qadriyatli munosabatda bo'lish, stereotiplarni buzish va rekonstruksiyalash kabi texnologiyalarning art-dizaynga doir bilimlarni rivojlantirish jarayoniga adaptivligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan;

kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari professor-o'qituvchilarning sotsial kreativlikka xos funksiyalarini ijodkor talaba shaxsiga xos vertikal, lateral (nostandart), sinergetik, assotsiativ, izchil, tanqidiy, panoram tafakkur turlariga muvofiq tarzda jadallashtirib borish mantiqiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish tizimi” nomli uslubiy qo‘llanma chop etilgan;

“Tikuvchilik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi” fanidan elektron o‘quv-uslubiy majmua (№ DGU 12310) yaratilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni dizayn namunalari loyihalashga tayyorlashning didaktik ta‘minoti ishlab chiqilgan;

kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari va omillarining aniqlashtirilganligi, kreativ yondashuvning art-dizaynga doir bilimlarni tarkib toptirishga doir imkoniyatlarining yoritib berilganligi, art-dizaynga doir bilimlarni rivojlantirish muammosining nazariy-empirik asoslarining aniqlanganligi, talabalarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish jarayonining mazmuni, uni tanlash tamoyillarining strukturalanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kreativ yondashuv asosida bo‘lajak dizayner pedagoglarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish modelining tashkiliy-jarayonli komponentining interfaol texnologiyalar orqali takomillashtirilganligi, kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar hamda didaktik ta‘minotning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv omillarini kontsept tavsifiga ega ijtimoiy-psixologik va sohaviy jarayonlarning o‘zaro madaniy sintezlashuvining validiligini qat‘iy hisobga olish orqali aniqlashtirish, bo‘lajak dizayner-o‘qituvchilarda kreativ yondashuv asosida art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish mazmunini o‘quv materiallarini loyihalashning besh bosqichli parametrlarini artpedagogikaning kontseptual g‘oyalari bilan identifikatsiyasiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan texnologik ta‘lim yo‘nalishi uchun “Gazlamalarga ishlov berish praktikumi” o‘quv qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalainilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-son buyrug‘i, 149-432 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak

o'qituvchilarda art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

kreativ yondashuv asosida bo'lajak dizayner pedagoglarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish modelining tashkiliy-jarayonli komponentini IVEN, g'oyalar maydonini yaratish, reflektiv, shaxsga yo'naltirilgan, vizual kreativlik, milliy dizaynga qadriyatli munosabatda bo'lish, stereotiplarni buzish va rekonstruksiyalash kabi texnologiyalarning art-dizaynga doir bilimlarni rivojlantirish jarayoniga adaptivligini ta'minlash orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FZ-2016-0909111822. "Darslik va o'quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o'quvchilarda ommaviy madaniyatga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari" (2017-2020 yy.) fundamental loyihaning darslik va o'quv adabiyotlarini yaratishda artpedagogikaning imkoniyatlarini kengaytirish qismini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 28-fevraldagi 02-07-775/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishda artpedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini professor-o'qituvchilarning sotsial kreativlikka xos funktsiyalarini ijodkor talaba shaxsiga xos vertikal, lateral (nostandart), sinergetik, assotsiativ, izchil, tanqidiy, panoram tafakkur turlariga muvofiq tarzda jadallashtirib boorish mantiqiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FZ-XT-1-55237. "Pedagogik atamalar mazmunini modernizatsiyalash va unifikatsiyalash parametrlari" (2015-2017 yy.) fundamental loyihasi doirasida yaratilgan "Pedagogika" ensiklopediyasini kreativlik va art-dizaynga oid materiallar bilan boyitishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 28-fevraldagi 02-07-775/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishga doir ilg'or tajribalarni jamlash va ommallashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatitsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish, 1 ta uslubiy qo'llanma chop etilgan, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni

rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma‘lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuv asosida dizaynga oid bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ilmiy yondashuvlari, bo‘lajak o‘qituvchining kreativ kompetentligini shakllantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarga art-dizaynga oid bilimlarni modulli taqdim qilish muammosi tahlil qilingan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini ta‘minlash konsepsiyasi doirasida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini ta‘minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Chunki bo‘lajak o‘qituvchining ijodkorligi uning kasbiy mobilligini ta‘minlaydi. Bu talabalarning shaxsiy kreativligi va kasbiy faoliyati orasidagi mutanosiblikni ta‘minlash imkonini beradi.

Art-dizaynga oid bilimlar madaniyatshunoslik siklidagi o‘quv predmetlari mazmuniga singdirilib, talabalarning ijodiy madaniy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchining kreativligini art-dizaynga oid bilimlar yordamida rivojlantirish quyidagilarda o‘z ifodasini topadi: loyixa metodikasi, ishchan o‘yinlar, assotsiativ texnikalar, tanlovlar, viktorinalar, ijodiy topshiriqlar tizimi yordamida amalga oshiriladi.

Pedagogika ensiklopediyasida **kreativlik** (ijodiylik) (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – 1) qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon; 2) shaxsning yangi g‘oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati² ekanligi ko‘rsatilgan.


I. Dedovskiyning fikricha: talabalarda kasbiy kreativlikni rivojlantirish ularda tafakkurning asotsiativligi, tashabbuskorligi, metaforistik xarakterga egaligi, betakror yechimlarning vujudga kelishiga asos bo‘ladi. Ruxiy jarayonlarning faollashuvi shaxs tafakkuri va xulq-atvorida ruxiy inersiyalarning bartaraf etilishiga ko‘maklashadi.

Ye.Sherbakova: talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qilish, hissiy barqarorlik, irodaviy sifatlar, quvonch hissi, ishchanlik darajasi, atrofdagilarga nisbatan mehr va rahmdillik bilan yondashish, shuningdek, ijodiy layoqat ko‘rsatkichlari, topqirlik, uyg‘unlashtirish layoqati, divergent tafakkur, vizual ijodkorlik, assotsiyatsiyalash layoqati kabilar pedagogik kreativlikning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

I.V.Shovgurova o‘z tadqiqotlarida kreativlikni ilk bor bo‘lajak o‘qituvchining tayanch kasbiy layoqati va kasbiy faoliyatni etnomadaniy qadriyatlar bilan integratsiyalash asosida tadqiq etgan. Bunda etnomadaniy an‘analar bilan talabaning shaxsiy madaniyatini integratsiyalash asosida kreativ faoliyatni shakllantirish ham nazarda tutilgan.

² Pedagogika: ensiklopediya. II-jild / Tuzuvchilar jamoa. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat nashriyoti, 2015. – B. 198.

Dizayner-pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishning obyektiv va subyektiv omillari mavjud. Obyektiv omillar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: O‘zbekistonda va butun dunyoda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, moda olamidagi o‘zgarishlar; oilaviy qarindoshlik munosabatlari; ommaviy axborot vositalari; talabalar yashaydigan hududning o‘ziga xos jihatlari; tanishlar va do‘stlarning talaba shaxsiga ko‘rsatadigan ta’siri kabilar. Subyektiv omillar sifatida esa, genetik iqtidor (oliy nerv faoliyati, xarakterning o‘ziga xos jihatlari, fikrlash jarayonlarining xususiyatlari); talabaning umumiy madaniyati va eruditsiyasi; ijod qilishga nisbatan ichki motivatsiyaning shakllanganligi kabilar nazarda tutiladi. Obyektiv hamda subyektiv omillar bo‘lajak dizayner-pedagoglarda ijodkorlikning rivojlanishiga ham salbiy, ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Bo‘lajak dizayner-pedagoglarda kreativlikni rivojlantirish omillari

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy xatti-harakati, faoliyatida kreativlik mavjudligini bir qator holatlar namoyon etadi. Bo‘lajak dizayner-pedagoglar muammolarni yangicha yondashuv asosida, nostandart shaklda yechishga harakat qiladilar. Kreativlik bir qator omillar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi yoki yashirin ko‘rinish kasb etishi ham mumkin. Ta‘lim oluvchilarda kreativlikning namoyon bo‘lishida o‘quv jarayoni, unda qo‘llaniladigan metod va texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Ijodiy faoliyat jarayonida nafaqat kreativlik rivojlanadi, balki bo‘lajak dizayner-pedagoglarning o‘quvchilar bilan muayyan loyihalar ustida ishlash ko‘nikmalari ham shakllanadi. Tasavvur, fantaziya, hissiy hozirjavoblik, empatiya ham shular jumlasiga kiradi.

Bugungi kunga kelib bir qator muayyan dizayn tur va yo‘nalishlari mavjud. Bu dizaynlarning aksariyati ijodiy faoliyat sifatida talqin etiladi. Bu narsa va buyumlarning estetik jihozlanishiga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Shuning uchun ham bo‘lajak dizayner-pedagogning mazkur maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati ijodiy faoliyat sifatida talqin etiladi. Chunki bo‘lajak dizayner-pedagogining kreativligi uning ijodiy faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Dizaynerlik faoliyati atrof-muhitni o‘zgartirishga

yo'naltirilganligi bilan xarakterlidir. Shuning uchun ham bo'lajak dizayner-pedagoglar nostandart, kreativ fikrlash tarziga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Dissertatsiyaning **“Kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak o'qituvchining art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish artpedagogikaning yetakchi masalalaridan biri ekanligi asoslanib, kreativ yondashuv asosida bo'lajak dizayner-pedagoglarga kasbiy-ijodiy bilimlarni taqdim etish mexanizmlari aniqlangan hamda bo'lajak o'qituvchilarda art-dizaynga oid bilimlarni rivojlantirishning kreativ metodlar yoritib berilgan.

Bo'lajak dizaynerlar pedagogik va korreksion faoliyat jarayonida artpedagogikaning imkoniyatlaridan foydalanadilar. Artpedagogikaning muhim funksiyalaridan biri uyg'un tarzda rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Bo'lajak o'qituvchilarning dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish artpedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak dizayner-pedagoglar faoliyatning ikki sohasida o'zlarini namoyon qilishlari lozim hisoblanadi. Bu sohalar fan va amaliyotdan iborat bo'lib, ular o'zaro aloqadorlikda rivojlanadilar.

Artpedagogikaning konseptual g'oyalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi: insonparvarlik, kreativlik, refleksiyalash, integratsiyalash kabilar. Artpedagogika doirasida insonparvarlikka alohida ahamiyat beriladi. Chunki insonparvarlik san'atning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, uning butun mohiyati insonning qalbini zabt etib, ezgulikka undashida namoyon bo'ladi. Chunki yangicha pedagogik tafakkurning asosini insonparvarlik tashkil etadi. Insonparvarlik artpedagogikaning asosi va artpedagog faoliyatidagi yetakchi prinsip hisoblanadi.

Kreativ yondashuv asosida o'quv materiallarini loyihalash jarayoni bir qancha parametrlar asosida amalga oshiriladi. Bo'lajak dizayner-pedagoglarga taqdim etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan o'quv materiallariga besh bosqichda ishlov beriladi:

1. O'quv materiallarini tahlil qilish.
2. Yaratiladigan ijod namunalarini loyihalash.
3. Loyihani ishlab chiqish.
4. Loyihani tatbiq etish.
5. Loyihaning amalga oshirilganligini baholash.

Aniq izchillik asosida dizaynga oid bilimlarni talabalarga taqdim etganda ta'lim samaradorligi ortadi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy topshiriqlarni yechish jarayonida muammoli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmasini ham shakllantirish taqozo etiladi. Talabalardan o'zini mustaqil anglash, o'z-o'zini mustaqil boshqarish va refleksiyalash, tafakkurning moslashuvchanligi va ko'p variantlilik, axborot oqimlari sharoitida jadal moslashish layoqatiga ega bo'lish, bozor ehtiyojlariga moslashish, bilish qiziqishlarini qo'yilgan maqsad sari yo'naltirish, kasbiy motivatsiya, tashabbuskorlik, harakat algoritmlari va topshiriqlarini yechish yo'llarini o'zlashtirish talab etiladi.

Dizaynerning faoliyati yangi g'oyalar, ijod namunalarini yaratishga asos bo'ladi. Yangi ijod namunalari tasadifan yoki kreativ faoliyat natijasi sifatida taqdim qilinadi. Dizayn namunasining yangiligi jarayonni yangicha uslubda tashkil etishni taqozo qiladi. Yangi namunalar yangi metodlar, usullar, harakat usullari yordamida yaratiladi. Fikriy jarayonlarning natijalari harakat algoritmi yoki ijodiy faollik natijasi bo'lgandagina

yangilik sifatida tan olinadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki ijod jarayoni maxsus dasturlashtirilmaydi. Ijod namunasi har doim jamiyat yoki muayyan guruh a'zolari uchun qadriyatli ahamiyat kasb etishi nazarda tutiladi.

Dizayner-pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida loyihalashtirish kursi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarni loyihalash faoliyatiga tayyorlash jarayoni talabalarning ijodiy layoqatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Loyihalash metodi yordamida bo'lajak dizayner-pedagoglar konstruksiyalarni yaratish, uni boshqa dizayn namunalarida ham qo'llash layoqatiga ega bo'ladilar. Ayni bir ornament ustida ishlash jarayonida ham bo'lajak dizaynerlar loyihaning kompozitsion qurilishi bilan bog'liq turli ijodiy harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.

Ta'limning interfaol shakllarini qo'llash va ijod erkinligining ta'minlanishi bo'lajak dizayner-pedagoglarning manfaatdorligini oshirib, ijodiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kreativ faoliyat uzoq davom etadigan murakkab harakatlar majmui bo'lib, fantaziyaga moyillikni talab qiladi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta'lim jarayonida, birinchi navbatda, bo'lajak dizayner-pedagoglarning kreativ faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, buning uchun zarur didaktik vositalar, usul, metod va texnologiyalarni qo'llash, loyihalash faoliyatini tizimli tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunga kelib professor-o'qituvchilar bo'lajak dizayner-pedagoglarning kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni nisbatan qisqa muddatda o'zlashtirishlari uchun qulay metodikalarni taqdim qilishlariga ehtiyoj sezilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki dizayn sohasida uzluksiz tarzda yangi bilimlar tizimi vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida, mazkur bilimlarni bo'lajak o'qituvchilarga taqdim etish algaritmlarini qo'llashni taqozo etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning dizaynga oid bilimlarni o'zlashtirish motivatsiyasi pedagogik jarayon va uning natijalari samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, dizayner uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan evristik va kreativ metodlar uni ijodiy izlanishga undaydi. Mazkur metodlar dizaynerni buyumlarning yangi konstruksiyasi, shakli, dekoratsiyasini yaratishga oid faoliyatini rivojlantiradi. Kreativlik shaxsni ijod qilishga, iqtidorini ro'yobga chiqarishga bo'lgan moyilligini oshiradi. Natijada bo'lajak dizaynerlarda ko'pgina ijodiy sifatlari qat'iylashadi. Ijodkorlik sifatlari rivojlangan bo'lajak dizaynerlar an'anaviy qoliplardan voz kechib yangi shakllarni yaratishga moyil bo'ladi. Ular tafakkurning qat'iy o'rnashgan shakllaridan voz kechishga harakat qiladilar. O'zlariga bog'liq bo'lmagan omillar yordamida iqtidorlarini namoyon etadilar.

Kreativlikning asosiy yo'nalishlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

betakrorlik – alohida assotsiatsiyalar va nostandart javoblarni namoyon etish;

mavzularning barqarorligi – dizayn namunalarining asosiy xususiyatlarini ko'rsatish va undan foydalanishning yangi jihatlarini taklif etish;

ifodali, tabiiy moslashuvchanlik – dizayn namunalarining shakllari va yo'nalishlarini o'zgartirish;

mazmun bog'liq holda asoslangan favqulotda moslashuvchanlik – belgilangan vaziyatlarda rang-barang g'oyalarni ilgari surish.

Mutaxassislar, jumladan Gilford kreativlikning oltita parametirini ajratib ko'rsatgan: muammoni aniqlash va ilgari surish layoqati; g'oyalarni generatsiyalash layoqati; g'oyalarni namoyon qilish layoqati; nostandart yechimlarni qo'llash layoqati; namunalarni yanada takomillashtirish; muammolarni yechish layoqati.

Dizayner-pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida loyihalashtirish kursi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Boshqa o'quv kurslari esa loyihalashtirish kursi bilan aloqadorlikda faoliyat ko'rsatadi. Loyihalash o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

muayyan kasbiy yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash. Bunda loyihalashtirilayotgan dizayn namunasi matnlar, belgilar, modellar shaklida ifodalanadi;

dizayn namunasi ilmiy-texnik asosnomasi. Har bir loyihaning ilmiy-texnik asosnomasi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi tomonidan yaratiladi, mavjud bo'ladi, dizayn namunasi ilmiy-texnik hamda ijtimoiy-madaniy asosnomasi bo'lajak dizayner-pedagogning o'zi yaratayotgan mahsulot haqidagi ilmiy tasavvurlari, madaniy dunyoqarashini qamrab oladi.

Shu bilan bir qatorda bo'lajak texnologiya o'qituvchisi mavjud bilim zahirasiga tayangan holda o'z loyihasini baholaydi;

dizayn loyihasining qulayligi. Loyiha ayni dizayn namunasi yaratuvchi shaxs uchun tashkiliy hamda vositalarning mavjudligiga ko'ra qulay bo'lishi lozim.

Bo'lajak dizayner-pedagoglarni tayyorlashda kreativ metodlardan foydalanishning zarurligi insonning yangiliklar yaratishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu esa, o'z navbatida, dizaynerlik mahsulotlarini yaratish yo'lida ijod qilishga turtki beradi. Dizaynerlikka oid mahsulotlar o'zining shakli, koloriti, tarkibi, kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Bo'lajak dizayner-pedagoglardagi bunday layoqatlarni to'la ro'yobga chiqarish uchun o'quv jarayonida ularga dizaynga oid bilimlarni rang-barang metodlar yordamida taqdim etish talab qilinadi.

Zamonaviy liboslar dizayni sohasidagi eng so'ngi rusumlarni illyustrasiyalarda ifodalash va namoyish etish, ushbu usullardan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Buning uchun dastlab talabalarga dizayn nazariyasi va metodologiyasiga oid bilimlarni taqdim etish nazarda tutiladi. Mazkur materiallar talabalarining ijodiy hatti-harakatlarini ilmiy asosda tashkil etish maqsadida tadbir etiladi.

Tadqiqot natijalari asosida bo'lajak dizayner-pedagoglardagi ijodkorlikni kreativ yondashuv asosida rivojlantirish blok-sxemasi ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

Bo'lajak o'qituvchilarni dizaynga oid bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiladigan kreativ metodlarni o'ziga xos tarzda tasniflash mumkin. Kreativ metodlar turli shakllarda quyidagicha tavsiflanadi: buyumlarni yoki elementlarni kattalashtirish, dizaynga oid elementlarni kichiklashtirish, dizaynga oid elementlarni teskari ifodalanishi, dizayn namunasi tarkibidagi elementlarni ko'paytirish, dizayn namunasi tarkibidagi elementlarni qayta shakllantirish va bir holatdan ikkinchi holatga ko'chirish, dizayn namunasi tarkibidagi elementlar o'rnini almashtirish yoki o'zgartirish.

Kreativ yondashuv asosida bo'lajak dizayner-pedagoglarda ijodkorlikni rivojlantirish blok-sxemasi

Kreativlik metodi	Metod+ijodiy jarayon	Ijodiy jarayon+ natija
Diqqatni boshqarish	Bo'lajak dizayner-pedagogning diqqati ma'lum bir voqeaga yoki ob'ektga qaratiladi	Qiziqish uyg'onadi. Kreativ g'oyalar yaratish, ijod qilishga intilish kuchayadi
Nomutanosiblik	O'zaro mos tushmaydigan qismlarni bir-biri bilan uyg'unlashtirish	Ranglar detallar uyg'unligini topa olish ko'nikmasi shakllanadi
Perforatsiya	Bo'lajak-dizayner pedagoglarda kasbiy bilimlarni rivojlantirishda perforatsiya ya'ni sinab ko'rish metodi ham muhim ahamiyatga ega.	Bunda dizayner pedagog turli materiallardan libos maketini yasaydi va uni sinovdan o'tkazadi
Giperbolizatsiyalash	Bunda dizaynerlik loyihalarining tarkibiy qismlari yiriklashtiriladi	Tarkibiy elementlarga urg'u berilgan ijodiy namuna yaratiladi
Kollaj	Libosning turli qismlari o'zaro uyg'unligi ta'minlangan holda bir-biriga ulanadi	Kreativ g'oyani maqsadga muvofiq tarzda yakunlash ko'nikmasi shakllanadi
Minimizatsiya	Minimizatsiyalashdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod yordamida liboslarning tarkibiy qismlari kichraytirilib, ularning andazalari yaratiladi	O'z g'oyasini imkoniyatlarini kengaytirish motivatsiyasi kuchayadi
Imitatsiya	Imitatsiyalashda rusmlardan aynan nusxa olinib, dizayner uni o'z fantaziyasi yordamida yoritadi	Ijodiy faoliyatda ong osti harakatlarini amalga oshiradi


Bo'lajak o'qituvchining yaxlit tafakkur tarzi doirasidan kasbiy ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ayrim elementlar ajratib olinadi va kreativ metodlar yordamida rivojlantiriladi. Ulardan har biri o'ziga xos ifoda shakliga ega. Bo'lajak dizayner-pedagogning ijodiy tafakkuri o'z xarakteriga ko'ra quyidagi yo'nalishlarga ega bo'ladi. Ular:

- vertikal xarakterdagi ijodiy tafakkur;
- lateral (nostandart) tafakkur;
- sinergetik tafakkur;
- assotsiativ tafakkur;
- izchil tafakkur;
- tanqidiy tafakkur.

Biz ko'rsatgan tafakkur turlarining barchasi bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy layoqatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Bo'lajak dizayner-pedagoglarga xos bo'lgan tafakkur turlarini aniqlash natijalari o'quv jarayonini tabaqalashtirgan va individual yondashuvlarni tadbiiq etish zaruriyati mavjudligini ko'rsatmoqda. O'quv jarayonining muayyan bosqichida qo'yilgan muammoning tabiatidan kelib chiqqan holda aniq fikrlash jarayonlarini tashkil etish taqozo qilinmoqda. Mazkur jarayonda zamonaviy tendensiyalar, dolzarb g'oyalar vujudga keladi. Ular yangi, kreativ namunalarni qabul qilish bilan bog'liq hissiy holatlarni chuqur idrok etadilar. Bo'lajak dizayner-pedagogning yangi g'oyalarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish o'quv jarayonini jadallashtirish bilan bir qatorda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak dizayner-pedagog o'zining ijodiy faoliyati jarayonida aniq metodlar va texnologiyalardan foydalanganda kasbiy bilimlarning mahsuldorligi ortadi.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida kreativ yondashuv asosida bo'lajak dizayner pedagoglarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish modeli takomillashtirildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Kreativ yondashuv asosida bo'lajak dizayner pedagoglarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish modeli

Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur jarayonda ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi muhit yaratiladi. Bunday vazifalarning muvaffaqiyatli yechilishini quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish mumkin: dizayner-pedagoglarning nafaqat kasbiy-ijodiy faoliyatga xos bilimlarni o'rganadilar, shu bilimlar vositasida o'zlarining

ijod namunalarini yaratadilar va istiqbolda o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltiradilar. Chunki bo'lajak dizayner-pedagoglar mustaqil ijodiy faoliyat jarayonida kasbiy jihatdan rivojlanadi va kreativ ijodkor sifatida shakllanadi.

Dissertatsiyaning **“Kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda art-dizaynga oid bilimlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi hamda bo'lajak dizayner-pedagoglarda kreativ fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

